



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-95-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-sonli qarorining tumandagi ijrosi bo‘yicha tuman hokimi birinchi o‘rinbosarining hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-son Farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-son qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimligida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Muratovning hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshutilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-son qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimligida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Muratovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (I.Mustaramov):**

- har hafta tuman hokimi huzurida, har oyda xalq deputatlari tuman Kengashi

majlislarida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holatini muhokama qilib borilishini ta'minlasin hamda topshiriqlarni to'liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta'minlamagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik masalasini ko'rish yuzasidan taklif kiritilsin.

### **3. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlariga:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-sonli Farmoni hamda 2021-yil 30-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga muvofiq, "Ijro.gov.uz" elektron tizimi orqali qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirilsin.

### **4. Tuman adliya bo'limi (G'.Tilovqobilov)ga:**

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha mas'ul ijrochilar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni to'liqligi va haqqoniyligini o'rganish, shuningdek, mehnat jamoalarida qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari bo'yicha huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

### **5. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi, tuman hokimligi devonxona bo'limi (Q.Mengliboyev) bilan birgalikda:**

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar mas'ul ijrochi tomonidan o'z vaqtida bajarilishi va natijasi bo'yicha belgilangan shakldagi ma'lumotlar to'liq va haqqoniyligini nazoratga olish;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holati yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni har kuni tuman hokimiga kiritib borish vazifasi topshirilsin.

6. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida **har oy yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Muratov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**